



YANGI O‘ZBEKISTON TADBIRKORLARI – MILLIY TARAQQIYOTIMIZ, ISTIQBOLIMIZNI TA’MINLAYDIGAN, XALQIMIZNI BOY, HAYOTIMIZNI FAROVON QILADIGAN KUCH

Yangi Toshkentda 20-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti bo‘lib o‘tdi.



Erkin va raqobatbardosh tadbirkorlik muhiti iqtisodiy o‘rinishni tezlashtiradi. Shu bois, mamlakatimizda tadbirkorlar uchun har tomonlama sharoit yaratish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sanaladi.

Xalqaro tajribada ham mamlakatning iqtisodiy salohiyati va barqaror rivojlanishi, avvalo, tadbirkorlik faoliyatining qay darajada erkin va samarali tashkil etilganiga bog‘liq. Zamonaviy iqtisodiyotda davlatning asosiy vazifalaridan biri tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va to‘siqlarni kamaytirishdan iborat.

Ishbilarmonlik jamiyatda yangi ish o‘rinlari yaratadi, turli sohalarida raqobat muhitini kuchaytiradi, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga turtki bo‘ladi. Tadbirkorning har bir tashabbusi nafaqat uning jamoasi manfaatlarini, balki mamlakat iqtisodiy salohiyati uchun ham xizmat qiladi.

Agar mamlakatda tadbirkorlar uchun qulay huquqiy, moliyaviy va infratuzilma sharoitlar yaratilsa, bu jarayon xorijiy samoyadorlar uchun ham jozibador muhitni shakllantiradi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlarni kasb bayrami va Mustaqillikning 34 yilligi bilan

tabrikkladi. Har bir soha, har bir hudud, har bir mahalladagi o‘zgarishlarda ularning hisssasi katta ekanini ta’kidladi.

O‘tgan sakkiz yilda iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari yangidan tashkil etildi. Bu davrda 230 milliard dollar investitsiya kirib keldi, shundan 120 milliard dollardan ortig‘i xorijiy sarmoya. Bu yil birinchi yarim yillikda mamlakatimiz iqtisodiyoti 7,2 foizga o‘tdi.

Biznes yuritishdagi qulayliklar natijasida tadbirkorlar ko‘payib, faoliyati kengayib bormoqda. Masalan, 1 ming 600 ta mikro korxona bir yil ichida aylanmasini 10 milliard so‘mdan oshirib, birdaniga o‘rta korxonaga,

143 tasi esa 100 milliard so‘mdan oshirib, yirik korxonaga aylandi. Yana 122 ta kichik korxona yirik biznes safiga qo‘shildi.

Biznesni “soya”dan chiqarish choralarini natijasida 139 mingta korxonada ish o‘rinlari 811 mingtaga ko‘paydi, 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foizga oshirdi. O‘tgan yili xususiy sektorda o‘rtacha oylik 4 million so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda 5 million so‘mga yaqinlashdi.

Ilk ochiq muloqotdan buyon tadbirkorlarning mingga yaqin tashabbusi qonunchilikka kiritilgani qayd etildi. Bu galgi muloqot beshinchisi bo‘ldi. Unga

tayyorgarlik davomida 26 ta sohaning 7 mingga yaqin vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. “Koll-markaz” orqali ham 13 mingdan ziyod murojaat va tashabbuslar qabul qilindi.

O‘tgan haftalarda iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlari bo‘lgan mevasabzavotchilik, to‘qimachilik va yakka tartibdagi tadbirkorlik masalalari muhokama qilinib, ko‘mak choralarini belgilangan edi.

Muloqotda davlatimiz rahbari tadbirkorlikning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha ham yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, qisqa muddatda va tez

daromad beradigan ish o‘rinlari yaratishda eng samarador yo‘nalishlardan biri bo‘lgan xizmatlar sohasi jadal rivojlantiriladi. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha yangi dastur boshlanadi. Kelgusi uch yilda mehmonxona va turizm maskanlari tashkil qilish uchun jami 5 ming gektar yer auksionga chiqariladi. Bunda mehmonxona qurmoqchi bo‘lgan tadbirkorlardan yerlarni sotib olish uchun to‘lov undirilmaydi. Evaziga davlat shu summa bilan loyihaga ulushdor bo‘lib kiradi.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrlı vatandoshlar! Hurmatli tadbirkorlar, anjuman ishtirokchilari!

Avvalambor, cizlar bilan eng ulug‘, eng aziz ayyom — Vatanimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami oldidan uchrashib turganimdan behad xursandman.

Bugun shuni faxr bilan ayta olamizki, yurtimizda yaratilayotgan har bir ish o‘rni, qad ko‘tarayotgan har bir korxona, xalqimizning og‘irini yengil qilayotgan har bir xizmat, eksport bo‘layotgan har bir mahsulot — cizning jasorat bilan qilayotgan mehnatingiz, tashabbus va izlanishingiz mahsulidir.

Bugungi tadbirimizni shunchaki anjuman emas, davlat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladigan jonli va samimiy muloqot maydoni, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Bir haqiqatni unutmasingiz: lozim: har bir soha, har bir hudud, har bir mahalla — faqat

tadbirkor harakat qilganida, ularga quloq tutib, ishonch bildirilganida rivojlanadi, o‘bod bo‘ladi.

Shu bois, bugun sizlarni eshitamiz. Sizning ovozingiz orqali hal qilinadigan masalalarni birgalikda muhokama qilib, ularga aniq yechimlar topish haqida kelishib olamiz.

Hurmatli tadbirkorlar! Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq cizlar bilan hamfkr bo‘lib, iqtisodiyoti qudratli, sanoati raqobatbardosh, moliyaviy tizimi barqaror, barcha sohalari investorlar uchun jozibador bo‘lgan Yangi O‘zbekistonni barpo etishga kirishdik.

Adolatli hakam bo‘lsa aytсин, o‘tgan sakkiz yilda qattiq mehnat va mashaqqatlar bilan iqtisodiyotimizning ko‘plab tarmoqlarini yo‘qdan bor qildik. E’tibor bering, bu davrda turli sohalaraga 230 milliard dollar investitsiya kirib keldi, shundan 120 milliarddan ortig‘i — xorijiy sarmoya.

Bir qarashda aytishga oson bo‘lgan ushbu raqamni oldinlari hisob-kitob qilish tugul, tasavvur qilib ham bo‘lmasdi. Lekin, biz buni uddaladik.

Turli nizo va ziddiyatlar tufayli jahon iqtisodiyoti g‘oyat murakkab davmi boshidan o‘tkazayotgan bir vaqtda, pragmatik va proaktiv siyosatimiz tufayli, bu yil birinchi yarim yillikda iqtisodiyotimiz 7,2 foizga o‘tdi.

Bu yutuqlarimizning barchasi — sizlar bilan birgalikda qilgan mashaqqatli mehnatimiz mahsulı, albatta.

O‘tgan davrda minglab mikro va kichik korxonalar qisqa muddatda yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, katta-katta kompaniyalar bilan raqobat qila boshladi. Masalan, 1 ming 600 ta mikro korxona bir yil ichida oborotini 10 milliard so‘mdan oshirib, birdaniga o‘rta korxonaga, 143 tasi esa, 100 milliard so‘mdan oshirib, yirik korxonaga aylandi. Yana 122 ta kichik korxona oldinga

ikki qadam sakrab, yirik biznes safiga qo‘shildi.

O‘tgan yili oboroti 1 trillion so‘mdan oshgan 203 ta korxona bor edi. Bu yilning o‘tgan olti oyida ularga qo‘shimcha yana 47 ta korxona 400-500 milliard so‘mlik marrani zabt etdi. Nasib qilsa, yil yakunigacha ular ham bemalol “trillionchilar” safiga qo‘shiladi.

Biznesni “soya”dan chiqarish bo‘yicha yangi mexanizmlarni ko‘paytirganimiz hisobidan 139 mingta korxonada ish o‘rinlari 811 mingtaga ko‘payib, 2,2 milliondan 3 millionga yetdi. 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foizga yoki 4,6 trillion so‘mga oshirdi.

O‘tgan yili xususiy sektorda o‘rtacha oylik 4 million so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda 5 million so‘mga yaqinlashdi.

Men bu misollarni nima uchun aytapman? Odamlarimiz tadbirkorlikning “hadisi”ni olib,

ishbilarmonga aylandi, yurtimizda barqaror rivojlanayotgan yangi biznes hamjamiyati shakllandi.

Aziz do‘stlar!

An’anaga ko‘ra, bu yil ham kichik biznes vakillaridan tortib, yirik korxonalar rahbarlarigacha — eng ilg‘or va fidoyi tadbirkorlarimizning 49 nafari davlat mukofotlari, 112 nafari esa “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Ularning orasida ilmi, tafakkuri bilan biznes rivojiga katta hissa qo‘shayotgan olimlarimiz ham bor.

O‘tgan bir yilda yana 52 nafar ishilarmon tadbirkorimiz, miritshkor dehqon va fermerlarimiz, tashabbuskor investorlar orden va medallar sohibiga aylandi. Ayniqsa, homiylik qilib, bog‘cha va maktab, shifoxonalar qurayotgan, ehtiyojmand oilalarga kunda 5 million so‘mga yaqinlaydigan ko‘payib borayotgani bizni quvontiradi.

Hech shubhasiz, o‘g‘il-qizlarimizni sportga jalb qilish uchun katta sharoit yaratib berayotgan, ularning jahon va qit’a, Olimpiya hamda Paralimpiya o‘yinlari, boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori cho‘qqilarni zabt etishiga ko‘maklashayotgan biznes vakillari yurtimizning chinakam fidoyilardir.

Ushbu zalda ham, hududiy studiyalarda ham ularning ko‘pchiligini ko‘rib turibman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tadbirkor bo‘laman, degan minglab o‘g‘il-qizlarimiz uchun ilhom manbaiga aylanmoqda.

Fursatdan foydalanib, siz, hurmatli tadbirkorlarga, sizlar orqali butun respublikamizning biznes vakillariga o‘zimming chuqur va samimiy minnatdorligimni izhor qilaman.

Bayramingiz muborak bo‘lsin!

Davomi 2-betda



Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

BUGUNGI AVLOD ISHBILARMONLARI — MAMLAKATIMIZNING KATTA BOYLIQI

Bugun mamlakatimiz tadbirkorlari, biznes sohasi vakillari, tinib-tinchimas ishilarmonlarga shunday ta’rif berilyapti. Davlatimiz rahbarining o‘zi bundan sakkiz yil oldin yangi O‘zbekistonda boshlangan shiddatli islohotlar avvalidayoq tadbirkorlarga katta ishonch bildirdi. Bu ishonch ortida Prezidentimiz boshchiligidagi katta qo‘llab-quvvatlov, yurtimiz ishilarmonlariga berilayotgan doimiy imkoniyat va imtiyozlar mujassam. Mamlakatimiz tadbirkorlari ham bunga o‘z g‘ayrati, shijoati, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan javob bermoqda.

Kecha, 20-avgust kuni mamlakatimiz biznes sohasi vakillari intiq kurgan uchrashuv — davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti bo‘lib o‘tdi. Bunyodkorliklar maydoniga aylangan Yangi Toshkentda o‘tkazilgan uchrashuvning ruhi, ko‘lami ham shunga yarasha — bugungi tadbirkorlar oldiga qo‘ygan maqsadlari

kabi ulkan, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari kabi salobatli edi. Yangi va mahobatli manzil davlat hamda biznes o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladigan jonli va samimiy muloqot maydoniga aylandi.

Davomi 4-betda

“ISLOHOTLAR SHTABI” O‘ZIGA XOS TAJRIBA SIFATIDA TUMANLARNI KAMBAG‘ALLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANTIRADI

Inson hayotida har bir davr — yil, oy, hafta, kun va hatto soat yoki soniyalarning ham o‘ziga xos qiymati, ahamiyati bor. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistonni barpo etishga kirishilgan tarixiy yangilanish jarayonlarining shiddatli sakkizinchi yili barcha yurtodshlarimiz qatori chilonzorliklar hayotida ham o‘chmas iz qoldirishi shubhasiz. Negaki 2025-yil yakuniga qadar tumanimizni ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirishni maqsad qilganmiz.

Inson qadri ulug‘lanayotgan, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo‘yilayotgan mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan katta o‘zgarish va yangilanishlar, bunyodkorlik ishlari jadal olib borilayotgani marrani mana shunday katta olishimiz, shunga yarasha harakat

qilishimizga zamin yaratmoqda. Albatta, bularning barchasi yurtodshlarimizning farovon, hayotdan rozi bo‘lib yashashiga xizmat qilyapti.

Davomi 3-betda

<



2025-yil 21-avgust, 170-son

YANGI O'ZBEKISTON

Munosabat

“

Bu yilgi uchrashuvga yanada qizg'in tayyorgarlik ko'rildi, tadbirkorlar tomonidan bildirilgan takliflar ko'lami ham ancha katta. Anjumanga tayyorgarlik davomida 26 ta sohaning 7 mingga yaqin vakili bilan alohida-alohida uchrashuvlar o'tkazildi. “Koll-markaz” orqali 13 mingdan ziyod murojaat va tashabbuslar kelib tushgan. Davlatimiz rahbari bu yil ham tadbirkorlik faoliyatiga yanada ko'p qulaylik yaratishga qaratilgan mutlaqo yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida “Bugun shuni faxr bilan ayta olamizki, yurtimizda yaratilayotgan har bir ish o'rniga, qad ko'tarayotgan har bir korxona, xalqimiz og'irini yengil qilayotgan har bir xizmat, eksport bo'layotgan har bir mahsulot — sizning jasorat bilan qilayotgan mehnatingiz, tashabbus va izlanishingiz mahsulidir”, deya ta'kidlagani qalbarni yanada to'liqlantirgani

shubhasiz. Axir mamlakat Prezidentining o'zi tadbirkorlarni qo'llab, ularga rag'bat berib turibdi. 2021-yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan ochiq muloqot doirasida tadbirkorlarni o'ylantirayotgan masalalar muhokama qilinib, soha rivojiga xizmat qiladigan farmon va qarorlar, yangi loyiha va tashabbuslar biznes egalarining o'zlari bilan maslahatlashgan holda qabul qilinayotgani ham alohida e'tibor ifodasi.

Ilk ochiq muloqotdan buyon shu kungacha tadbirkorlarning mingga yaqin tashabbusi qonunchilikda o'z aksini topgani buning isboti.

Bu yilgi uchrashuvga yanada qizg'in tayyorgarlik ko'rildi, tadbirkorlar tomonidan bildirilgan takliflar ko'lami ham ancha katta. Anjumanga tayyorgarlik davomida 26 ta sohaning 7 mingga yaqin vakili bilan alohida-alohida uchrashuvlar o'tkazildi.

“Koll-markaz” orqali 13 mingdan ziyod murojaat va tashabbuslar kelib tushgan. Davlatimiz rahbari bu yil ham tadbirkorlik faoliyatiga yanada ko'p qulaylik yaratishga qaratilgan mutlaqo yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, davlat ulushi bo'lmagan korxonalarga eksportda muddati o'tgan qarzdorlik uchun jarima hisoblash va undirishga bir yillik moratoriy e'lon qilinadigan bo'ldi. Korxonasiga tashqi

infratuzilmani o'z hisobidan qilayotgan tadbirkorlarning bu xarajati soliq bazasidan chagirib tashlanadi va hokazo.

Umuman, tadbirkorlikning ko'plab yo'nalishlarida qator yengillik va imtiyozlar berilishi e'lon qilindi. Bu ayni shu tashabbuslarni kutgan, bunga ishongan yurtimiz ishbilarmonlarini cheksiz quvontirdi. Davlatimiz rahbari ochiq muloqot davomida mamlakatimiz biznes vakillarini Tadbirkorlar

kuni bilan tabriklab, o'zining chuqur va samimiy minnatdorligini izhor qildi. Ularning bir guruhiga yuksak davlat mukofotlarini topshirdi.

Yurtimiz ishbilarmonlari ko'ksiga taqilgan bu mukofotlar Prezidentimizning ularga bildirgan ishonchi ramzi, xalqimiz va jamiyatimiz oldidagi mas'uliyati nishonasi, yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lidagi fidoyiligi timsolidir.



YUKSAK MARRALARNI KO'ZLAGANMIZ

Tadbirkorlar kuni arafasida davlatimiz rahbarining farmoni bilan bir guruh ishbilarmonlar qatorida yuksak mukofotga loyiq topilganimni eshitib, albatta, juda quvondim. “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganim men uchun katta sharafta va mas'uliyatdir. Ushbu davlat mukofoti nafaqat shaxsiy faoliyatim, balki bevosita “Paxtakor Tekst” MCHJda mehnat qilayotgan yuzlab ishchi-xodimlarimizga berilgan yuqori bahoning amaldagi ifodasi deb bilaman.



Ilhomjon ABDURAHMONOV,
Jizzax viloyatidagi “Paxtakor Tekst”
mas'uliyati cheklangan
jamiyati rahbari,
“Shuhrat” medali sohibi

Tadbirkorga ishonch, rag'bat berilsa, faoliyati rivojlanib boraveradi. Bu mamlakat taraqqiyoti, odamlar turmush farovonligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti buning yaqqol isboti. Tadbirkorlik faoliyatiga yaratilayotgan keng imkoniyatlar, soliq va moliyaviy imtiyozlar, huquqiy kafolatlarda biz — xususiy sektor vakillariga beqiyos ishonch va rag'bat bag'ishlanmoqda.

Ayniqsa, yangi O'zbekistonda majburiy mehnatga butunlay barham berilib, o'zbek paxtasiga jahon bozorida boykotning bekor qilinishi mamlakatimiz hayotidagi tarixiy voqealik bo'ldi. Endi nafaqat paxta yetishtiruvchi, balki uni qayta ishlab, tayyor mahsulot holda eksport qiladigan yirik davlatlardan biriga aylandik. O'zbek paxta-to'qimachilik sanoatining yangi davri boshlanibgina qolmay, qisqa muddatda katta rivojlanishga yuz burdi. Bugun sohada faoliyat olib borayotgan mahalliy tadbirkorlarimiz ishlab chiqarayotgan mahsulotlar jahon bozorida bemalol raqobatga kirishmoqda.

Sohadagi ildamlash, yaratilgan imkoniyat va berilgan imtiyozlar meni ham harakatga undadi. 2018-yilda Paxtakor tumanida ip-kalava ishlab chiqarishga mo'ljallangan “Paxtakor Tekst” MCHJ korxonasiga asos soldim. Shveysariya, Yaponiya, Turkiya, Hindiston davlatlaridan so'nggi rusedagi uskunalar, Shveysariyaning “Uster” brendi ostidagi laboratoriya qurilmalari olib kelindi. Birinchi va ikkinchi bosqichda yiliga 8 ming tonna ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, 735 nafar kishi ish bilan ta'minlandi. Uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda esa umumiy qiymati 26 million dollarga teng to'quv-bo'yq fabrikasi ishga tushirilib, 600 ta yangi ish o'rnini yaratildi.

Ayni paytda korxonada 8,1 ming tonna ip-kalava, 7 ming tonna bo'yalgan mato mahsulotlari ishlab chiqarilayapti. Mahsulot turlarini yildan yilga kengaytirib boryapmiz. Eksport hajmi ham oshmoqda. O'tgan yili qiymati 300 million

so'mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan 10 million dollarlik tovar xorij davlatlariga eksport qilindi.

Yurtimizda 2017-yildan klaster tizimi joriy etilgach, biz ham paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etishga qaror qildik. Boisi, bu tizim ko'p jihatdan afzalliklarga ega bo'lib, tayyor mahsulot uchun xomashyoni ham o'zimiz yetishtirishimizga imkon beradi. Bugungi kunda klasterimizga 11 ming 200 gektar paxta ekin maydoni birlashtirilgan. Unda 478 ta fermer xo'jaligi bilan fyuchers shartnomalari tuzilgan bo'lib, birgalikda qariyb 30 tonna paxta xomashyosini yetishtirishga erishyapmiz.

Viloyatimizda joriy yildan boshlab tajribasizov tariqasida geni o'zgartirilgan, kasallik va zararkunandalarga hamda gerbitsidga chidamli xorijiy (Xitoy) g'o'za navlari ekilib, o'rtaacha hosildorlikni 43 sentnerga yetkazish belgilangan. Buning uchun eng ilg'or texnologiyalardan foydalanilyapti. Ana shu marrani ko'zlab mehnat qilaypmiz. Hozir g'o'zalar yaxshi parvarishlanmoqda, nasib qilsa, o'ylagan hosilni olamiz. Bu daromadni yanada oshiradi. Qolaversa, tadbirkorligimiz ko'p tarmoqli bo'lib, 240 o'rinni maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda non sexi ham xalqimizga xizmat ko'rsatyapti.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari Prezidentlik lavozimiga kirishgan ilk kunlaridanoq biz, tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, erkin va samarali faoliyatimiz uchun zarur sharoitlarni yaratish, qiynayotgan masalalarimiz yechimiga ko'maklashish, ayniqsa, faoliyatimizga asossiz aralashuvlarga barham berishga alohida e'tibor qaratayotganini ta'kidlab o'tish o'rinni.

Ilk bor 2021-yilning 20-avgust kuni tadbirkorlar bilan uchrashib, qariyb olti soatdan ziyod muloqot qilgani hamon yodimda. Unda taklif va tashabbuslarimiz ham tingildi. Shu sana mamlakatimizda Tadbirkorlar kuni deb e'lon qilindi. Shundan beri bu kun yurtimizda har yili keng nishonlanmoqda.

Ayniqsa, biz bu sanani orzib qilyapmiz. Davlatimiz rahbari bilan bo'lib o'tadigan ochiq muloqotda yangi masalalar o'rtaqta tashlanib, faoliyatimizni yanada rivojlantiradigan ko'plab yangi imtiyoz va yengilliklar beriladi. Faol tadbirkorlarni davlatimizning yuksak orden va medallari bilan taqdirlash ham bizga bildirilgan katta ishonch, ko'rsatilgan e'tibor belgisidir.

Hech shubhasiz, bu mukofotlar tadbirkorlarga nafaqat moddiy, balki ma'naviy quvvat beradi. Shaxsan o'zim ham shu paytgacha davlat mukofotlari bilan taqdirlangan tadbirkorlarga havas bilan qarardim. Bugun esa men ham ulaming safida ekanimdan g'ururlanaman. Bu men uchun katta sharaft ekanini bilan birga yuksak mas'uliyat hamdir. Ushbu e'tirof yanada olg'a intilish, tadbirkorlik sohasida yangi yutuqlarga erishish, innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtidoshlarimiz farovonligi va mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga hissa qo'shishga undaydi.

Bugun juda katta sharafta va g'urur bilan so'zlayapman. Prezidentimiz farmoniga binoan “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganim ulkan iftixor, albatta. Bildirilgan ishonch, munosib ko'rilgan mukofot nafaqat faxr, balki katta mas'uliyat hamdir. Bu arxitektura va qurilish sohasidagi faoliyatimni yanada rivojlantirish, yurtimiz uchun ko'plab manfaatli loyihalarni amalga oshirishda katta kuch bag'ishlaydi.

YURTIMIZ ME'MORCHILIGI RIVOJIGA MUNOSIB HISSA QO'SHMOQCHIMAN

Dilnoza G'OZIYEVA,
“PERFECT DESIGN ARH” MCHJ direktori, “Shuhrat” medali sohibi

Shu kungacha poytaxt arxitekturasidan munosib o'rin topish uchun mehnat qilar ekanman, doim o'zimga o'zim hech narsadan qo'rqish kerak emas deb uqtiramman. Zero, astoydil niyat qilinsa, inson barcha maqsadiga erishadi. Boshlang'ich sinfda o'qiyotganimda “Arxitektor bo'laman”, deganman. Shunda o'qituvchim “Bu so'zning ma'nosini onangdan so'rab kel. Kasbingni o'zing tushunib tanlayapsanmi?” degan. Onam esa daftarga chiroyli qilib “me'mor” deb yozib bergan. Me'mor uylarning, katta-katta binolarning chizmasini chizishini tushuntirgan.

1985-yillarda “Saodat” jurnali muqovasida To'liqinoy Qodirova degan arxitektor ayolning surati chiqqan. Tog'am shu suratini ko'p bor ko'rsatib, “Mening jiyanim ham mana shunday arxitektor bo'ladi”, derdi. Shu bilan tanlagan kasbimga qiziqishim yanada ortib, qarorim qat'iy lashib bordi. Niyat xolis, maqsadim aniq ekan, arxitektor bo'ldim.

Avvaliga xususiy loyihalashtirish firmalarida ishlab, 2005-yilda “PERFECT DESIGN ARH” mas'uliyati cheklangan jamiyatini ochdim. U paytlarda loyihalash ishlari uchun litsenziya olish kerak edi. Maxsus komissiya talabgorning kasbga loyqligini aniqlab berardi. Komissiya



a'zolari men bilan birga suhbatga kirgan kursdoshim ikkimizni “Bular juda yosh, dizayn bilan shug'ullansin” degan qarorga keldi. Nima qilishni bilmay qoldim, biroq o'zimdagi kuch topib “Bizga imkoniyat bering”, dedim. Litsenziya berildi. Ilk loyihalarimizdan biri — Amir Temur ko'chasidagi kichik halqa yo'li kesishuvida joylashgan “Orient biznes” markazi (hozir UzOman Biznes markazi) loyihasi bo'lib, birinchi o'ringa loyiq topilgan.

IMKONIYATLAR BISYOR, BAHONAGA O'RIN YO'Q

Boshqa davlatlar qatori O'zbekistonda ham yil sayin chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab oshib boryapti. Bu esa mazkur yo'nalishda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarga har qachongidan ko'proq e'tibor berilishini taqozo etadi. Shu ma'noda, keyingi yillarda chorvachilikka ixtisoslashgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari davlatimiz tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanyapti va natijada soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, yangi ish o'rinlari yaratishga, ayni yo'nalishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga xizmat qilmoqda.



Murtazoxon DADAXONOV,
Kosonsoy tumanidagi “Osmon
sayyorasi” fermer xo'jaligi rahbari,
“Faol tadbirkor” ko'krak
nishoni sohibi

Quvonarlisi, yurtimizda bank kreditlari evaziga xorijdan mol olib kelib, aholini chorva mollari, sut mahsulotlari bilan ta'minlashda

o'ziga xos tajriba orttirilyapti. Xususan, b'zizga “Osmon sayyorasi” fermer xo'jaligi ham bu imkoniyatdan keng foydalanmoqda. Faoliyatimiz asosan chorvachilik bilan bog'liq bo'lgani bois, chetdan naslli mol olib kelib boqamiz. Avstriyadan 88 bosh simmental, Gollandiyadan 165 bosh golshteyn, Germaniyadan 105 bosh shvis zotli mollarni sotib olish bilan birga sut sog'ish uskunalarini ham olib kelganimiz. Chorvachilikka qiziqqan, shuning ortidan daromad qilish istagidagi aholi xonadonlarini naslli chorva mollari bilan, buzoqlar bilan ta'minlayotganimizdan xursandmiz.

Mahsuldorligi, sutining yog'lilik darajasi yuqori bo'lgan bunday mollarni iqlim sharoitimizga moslashtirish, sog'lig'ini muntazam nazorat qilib borishda bizga tuman veterinariya xodimlari yaqindan ko'mak beradi. Kuniga 8 tonna sutni qayta ishlab, xalqimizga 12 turdagi ekologik toza sut mahsulotlarini yetkazib beramiz. Albatta, bu shunchaki biznes emas. Jonivorlar tadbirkorni har tomonlama “harakatga keltiradi”. Zotdor mollar sifatini ozaq ham talab qiladi-da. Tayyor ozuqani sotib olishga esa ko'p mablag' sarflashingiz kerak. O'zingiz yetishtirsangiz, ham ishonchli yem, ham baraka bo'ladi.



Shuning uchun 157 gektar yer maydonimizda chorva uchun makka silosi, beda, senaj, somonni jamg'arib olamiz. Qishlovnig g'amini yemagan odam chorvador emas deb bilaman. Zero, chorvani qishdan betalofat, mo'l ozuqa bilan olib chiqish chorvadorning nechog'liq uzoqni ko'ra olishi, tajribali ekanidan dalolat.


Aslida, bugun tadbirkorlar ancha tajribali, shijoatli. Ishlayman deganni davlatimiz qo'llaypti. Hech qanday to'siq yo'q. Barcha sharoit bor. Faqat halol mehnat qilish kerak. Yaxshi tadbirkor bo'lishda ham halollik muhim omil. Zero, odamlarning ishonchini oqlasgani, tadbirkorning yuzi yorug', ishi unumli bo'ladi. Bundan tashqari, qo'l ostidagi ishchilarning sharoitidan boxabar bo'lib, ish haqini vaqtda berib turish ham ishchi kuchini doimiy ushlab turishning eng muhim jihatlaridan.

Ayni paytda fermer xo'jaligimizda 38 kishi chorvachilik yo'nalishida, 16 kishi sutni qayta ishlab sexida mehnat qilaypti. Ishchilarning aksari yoshlar. Ularning chorvachilikka mehr qo'yib, jonivorlarning tilini topayotgani, e'tibor bilan mahsulot tayyorlayotganini

ko'rib xursand bo'laman. Kelajakda ish o'rinlarini yanada ko'paytirish, ishsiz yoshlarning hayotiga mazmun berishni niyat qilaman shunday kezda.

Kamtaron mehnatimiz davlatimiz tomonidan e'tiborga olinib, “Faol tadbirkor” ko'krak nishoniga munosib ko'rilganimiz butun boshli jamoamizning yutug'i. Tom ma'noda bu e'tirof bizni yanada o'sishga, euzu niyatlarida bardavom bo'lishga yetaklaydi. Xalqimizga sut mahsulotlarini oliy sifatda yetkazib berish, naslli chorvani bir necha bor ko'paytirishga bel bog'ladik.

Yuqorida aytganimgdek, buning uchun barcha yo'llar ochiq. Davlatimiz tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berayotgan bir paytda hech qanday bahonaga o'rinni yo'q. Xalq bakaning 3,5 milliard so'm krediti evaziga onlayn tarzda mol olib kelganimiz, chorva soni ikki karra ko'paygani buning amaldagi ifodasi. Bugun banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar orqali naslli buzoqlarni xalqimizga yetkazib berayotganimiz, sotib olganlar rahmat aytayotgani bizni faqat va faqat yangi maqsadlarga ruhlantiradi.



UMUMIY MAQSADLAR SARI YO‘L

Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) davlat rahbarlari kengashining joriy yil 31-avgust — 1-sentabr kunlari Tyanszin shahri (Xitoy)da bo‘lib o‘tdigan 25-yig‘ilishi munosabati bilan “O‘zbekiston strategiyasi” jurnalining O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi strategik munosabatlar, shuningdek, SHHT doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikka bag‘ishlangan maxsus soni tayyorlandi. “Taraqqiyot strategiyasi” markazida Xitoyning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda ushbu nashrning taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Xitoy Xalq Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yuy Szyun, mamlakatimizning qator vazirlari va idoralari vakillari, tahlil markazlari ekspertlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Xitoy O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkorlaridan. Undan kelayotgan investitsiya, asosan, energetika, infratuzilma, transport va sanoat sohalariga yo‘naltirilgan. Misol uchun, yirik transport va logistika loyihalari bo‘yicha birgina 2024-yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo hajmi 12,4 milliard dollardan oshdi. Shu bilan birga, Xitoyning O‘zbekistondagi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari 10 milliard dollardan ziyod.

Bugun mamlakatimizda energetika, telekommunikatsiya, transport, konchilik, to‘qimachilik va raqamli infratuzilma kabi muhim tarmoqlarda 3300 dan ziyod qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida muhim mintaqaviy sherik sifatida faol ishtirok etmoqda.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik turli xalqaro platformalar, jumladan, BMT, SHHT, Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi va boshqalar

O‘zbekiston Prezidenti a‘zo mamlakatlari o‘rtasidagi mintaqaviy hamkorlik samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha umumiy prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, maxsus iqtisodiy zonalar alyansini tashkil etish, SHHT davlatlari savdo yarmarkasini o‘tkazish kabi yo‘nalishlarda o‘zaro muloqot, tushunish va hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan takliflarni bildirdi.

Ikki davlat o‘rtasidagi manfaatli strategik sheriklikning bundan keyin ham izchil rivojlanib borishi, SHHT doirasidagi siyosiy-diplomatik muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy almashinuvlar, mintaqaviy hamda global xavfsizlikni ta‘minlash sohalaridagi faoliyat yanada mustahkamlanishi shubhasiz.

Jurnal mamlakatlarimiz o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik, shuningdek, SHHT doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikning muhim yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. Mintaqaviy hamkorlikka oid zamonaviy tahlillar, ekspertlar fikrlari va amaliy tajribalar qamrab olingan. O‘zbekiston

“Ikki davlat o‘rtasidagi manfaatli strategik sheriklikning bundan keyin ham izchil rivojlanib borishi, SHHT doirasidagi siyosiy-diplomatik muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy almashinuvlar, mintaqaviy hamda global xavfsizlikni ta‘minlash sohalaridagi faoliyat yanada mustahkamlanishi shubhasiz.

doirasida rivojlanib bormoqda. Ikki davlat SHHTning hammuassislari va faol a‘zolari sifatida tashkilot doirasidagi hamkorlikni yanada samarali tashkil etish yuzasidan doim aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Xususan, O‘zbekiston tashkilotga raislik qiluvchi davlat sifatida SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining majlislariga to‘rt marotaba mezbonlik qilgan. Ularning so‘nggisi 2022-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi. Mazkur sammit yakunlari bo‘yicha rekord darajada — 44 ta hujjat, jumladan, qator kelishuv, konsepsiya, dastur va boshqalar imzolandi.

va Xitoyning tegishli vazirliklari rahbariyati va yetakchi tadqiqot muassasalari ekspertlari tayyorlagan tahliliy materiallar nashrdan o‘rin olgan. Jurnal o‘zaro hamkorlikni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Tadbirda ekspertlar so‘zga chiqib, jurnal taqdimoti SHHTning muhim tadbiri arafasida o‘tkazilishi mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga muhim e‘tibor qaratilayotganidan dalolat ekanini ta’kidladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Taraqqiyot odimlari

MEHNATIDAN QADR TOPAYOTGANLAR

Nukus shahri Chegarachilar ko‘chasidagi xonadonlardan birida istiqomat qiladigan Minayxan Ganiyevaning asl kasbi — o‘qituvchilik. O‘ttiz besh yildan buyon yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berib keladi. Shu bilan birga, tomorqasida dehqonchilik ham qiladi. Opa tomorqada olma, olxo‘ri, shaftoli daraxtlarini parvarishlaydi, pomidor, bulg‘ori qalampir, bodring ham yetishtiradi. Hosilning ro‘zg‘ordan ortganini qarindoshlariga tarqatadi. Umuman, ushbu hududda tomorqaga alohida quvur orqali suv yetkazib berilishi ham qulay imkoniyat.

Qoraqalpog‘istondagi shahar va qishloqlarda Minayxan singari tomorqadan samarali foydalanayotganlar safi kengayib boryapti. Birgina Nukus shahrining o‘zida Sayxunobod tajribasi asosida gulchilik, parrandachilik, asalarichilikni yo‘lga qo‘yishni o‘rgatish maqsadida tashkil etilgan o‘quv seminarida 2400 ga yaqin xotin-qiz ishtirok

etdi. Faqat ma‘ruza bilan cheklanilmadi, aksincha, ziroatchilikning amaliy jihatlari ham o‘rgatildi. Bunday chora-tadbirlar uy sharoitida daromad topish imkonini beradi. Masalan, hududdagi Bo‘zovul, Qo‘shbuloq, Ko‘k o‘zak, Guzar, To‘ng‘ich qo‘nis, va Qutli makon mahallalarida qo‘ziqorin yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan.

“2025-yil yakuniga qadar Xitoy tajribasi asosida Kambag‘allik va mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi tomonidan 5 gektar yerda kamida 5 sotixli issiqxona xo‘jaliklaridan iborat majmua barpo etiladi. Zaxiradagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 5 gektar sug‘oriladigan yer uchastkasi 49 yilga ijara huquqi asosida Kambag‘allik va mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markaziga ajratiladi.

Shuningdek, Zarbdor tajribasi asosida beshta mahalla sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalariga ixtisoslashtirilgan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, buning uchun turli manbalar hisobidan 53,4 milliard so‘m ajratiladi va yil yakuniga qadar 295 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Prezidentimizning “Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

hamda bir yilda kamida 10 kishini doimiy ish bilan ta‘minlagan tadbirkorlik subyektlariga o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha jami daromadning 50 foizigacha miqdorda ulush kiritish shaklidagi moliyaviy yordam ko‘rsatiladi.

Qolaversa, 2025-yil yakuniga qadar Xitoy tajribasi asosida Kambag‘allik va mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi tomonidan 5 gektar yerda kamida 5 sotixli issiqxona xo‘jaliklaridan iborat majmua barpo etiladi. Zaxiradagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 5 gektar sug‘oriladigan yer uchastkasi 49 yilga ijara huquqi asosida Kambag‘allik va mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markaziga ajratiladi. So‘ng kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalardan talabgorlar aniqlangan, issiqxona xo‘jaliklari 2 yil muddatga ijara shartnomasi asosida foydalanishga topshiriladi. Ijara muddati tugagandan so‘ng yer yana boshqa kambag‘al oilalarga ijara asosida beriladi.

Beruniy tumanidagi “Ozod intensiv bog‘” fermer xo‘jaligidagi 10 gektar bog‘da olma, uzum, shaftoli va nok yetishtirilmoqda. Zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimi bilan to‘liq ta‘minlangani bog‘dan oqilona foydalanish va hosildorlikni oshirish imkonini bermoqda. O‘tgan yili xo‘jalik uzumdan 40 tonna hosil olgan. Boisi, fermer doim yangilikka intiladi. Eng muhimi, ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlarni bajarish va har bir navni biologik xususiyatlarini inobatga olib parvarishlashdirl. Shundagina mahsulot xorij bozorida ham munosib baholalanadi, dehqonning mehnati qadr topadi.

Mahalla yoshlari yetakchisi lavozimi joriy etilgani ushbu yo‘nalishga oid qator muammolarni ijobiy hal etishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga ko‘maklashishda

yoshlar yetakchilarining keng qamrovli faoliyati alohida o‘ringa ega.

Amudaryo tumanidagi “Farovon” MFYda infratuzilma jadal rivojlanib, nomiga munosib obod va farovon bo‘lmoqda. Bugun mahalladagi 642 ta xonadonda 2534 kishi yashaydi.

— Ishsiz yoshlarni ish bilan ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlar tufayli chorvachilik yo‘nalishida o‘zini o‘zi band qilishi uchun 6 yigit-qizga imtiyozli kredit ajratildi, — deydi Farovon mahallasidagi yoshlar yetakchisi Shohrux Ro‘zatov. — Shuningdek, “Yoshlar daftari” jang‘armasi hisobidan 4 talabanning to‘lov-shartnoma puli to‘lab berildi. Mahallamizdagi 3 nafar yoshning o‘quv kurslarida zamonaviy kasb-hunar o‘rganish xarajati ham qoplandi. Umuman, o‘qigman, mehnat qilaman deganga zarur yordam berishga tayyormiz. Asosiysi, odamning o‘zida xohish bo‘lishi kerak.

— Uyda temirchilik ustaxonasini ochganman, — deydi mahalla yoshlaridan biri Asadbek Yalg‘oshev. — Buyurtma asosida temirdan har xil buyumlar tayyorlab beraman. Baribir hunarli bo‘lish yaxshi-da. Topayotgan daromadim yomon emas. Bundan tashqari, uy ishlariga ham ulguraman.

Hududdagi Bonu Tojimovaga esa xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishi uchun 7 yillik imtiyozli kredit ajratildi. Natijada bir necha xotin-qizning doimiy bandligi ta‘minlandi.

Mahalladagi yetakchining yoshlar qalbiga yo‘l izlashi, shu orqali muammolar yechimini topib, o‘z vaqtida bartaraf etishi aholining turmush sharoitini yaxshilash, yigit-qizlar hayotini ijobiy tomonga o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

